


“TASDIQLAYMAN”

**Aholi va qishloq xo‘jaligini
ro‘yxatga olishni o‘tkazishni tashkil
etish bo‘yicha respublika komissiyasi
raisining o‘rinbosari,
Milliy statistika qo‘mitasi raisi**


B. Hamrayev
2025-yil “ 10 ” *oktabr*

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish bo‘yicha tashkil etilgan viloyat va tuman shtablari NAMUNAVIY VAZIFALARI

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va
Toshkent shahri hamda tuman (shahar)lar hokimliklari:**

**1. 2025-yil 10 - 20-oktabrga qadar hududiy komissiyalar tarkibini va
hududiy komissiyalarning chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.**

Bunda:

- hokimlikning tegishli qarorlarini qabul qilishi;
- hududiy komissiyalar tarkibini tasdiqlashi;
- hududiy komissiyalar chora-tadbir rejalarini tasdiqlashi kerak.

2. 2025-yil 1-noyabrga qadar:

Tuman (shahar)larda ro‘yxatga olish shtabi faoliyatini tashkil etish.

Bunda:

Bino qulay ish sharoitlariga ega, sanitar–gigiyena talablariga to‘la javob berishi hamda quyidagi **talablarga** mos bo‘lishi lozim:

- stol va stullar;
- telefon;
- kompyuter (internetga ulangan bo‘lishi shart);
- printer;
- kanselyariya jihozlari;
- kirish eshigida “Ro‘yxatga olish shtabi” yozuvi bo‘lishi;
- chop etilgan ro‘yxatga olish to‘g‘risida me‘yoriy huquqiy hujjatlari;
- ro‘yxatga olishga doir ko‘rsatkichlar (oilalar soni, ko‘chalar soni, xonadon soni, ro‘yxatga oluvchilarni ro‘yxati, mahalla xaritasi)
- targ‘ibot tashviqot materiallari chop etilgan bo‘lishi (plakat, bannerlar ilingan holda bo‘lishi va tarqatma materiallarning yetarli bo‘lishi) shart;
- uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlanganligi;

- isitish tizimining mavjudligi va ishchi holatdaligi;
- ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi;
- telefon aloqa liniyasining mavjudligi;
- yong'in xavfsizligi va boshqa xavfsizlik talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

Shuningdek, xodimlar sonidan kelib chiqib ish o'rni jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan **asosiy va zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash.**

Bunda:

- **“Mahalla yettiligi”** tizimida vujudga keladigan **bo'sh ish o'rinlarini** malakali mutaxassislar bilan to'ldirish hamda barcha ishtirokchilar ro'yxatini to'liq shakllantirish choralari ko'rish;

- **“Mahalla yettiligi”** xodimlari ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash;
- ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratish amalga oshiriladi.

3. 2025-yil 15-noyabrga qadar hudud, tuman (shahar)larni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarni tasdiqlash.

Bunda:

- mahalla hududida har bir ro'yxatga oluvchiga tegishli yuklamalar (bitta ro'yxatga oluvchi uchun shahar joylarda o'rtacha **900 ta** aholi soni, qishloq joylarida **700 ta** aholi soni)ni ko'chalar kesimida taqsimlash ishlari amalga oshiriladi;

- mahalla hududi bo'yicha ro'yxatga oluvchilar yuklamasi asosida ro'yxatga olish uchastkasining tashkiliy rejasini tasdiqlanadi;

- tasdiqlangan mahallalar tashkiliy rejasiga muvofiq tuman (shahar) va viloyatlarning tashkiliy rejasini tasdiqlanadi.

4. Doimiy ravishda ro'yxatga olish tadbirining aholi o'rtasida keng yoritilishini tashkil etish.

Bunda:

- aholi orasida ro'yxatga olish tadbirini keng targ'ib qilish maqsadida ommaviy joylarda tashviqot banner va plakatlarini o'rnatishni;

- jamoat joylari, ta'lim tashkilotlari va jamoat transportlarida ro'yxatga olish tadbiri haqida tarqatma materiallar tarqatishni;

- bozorlar, vokzallar va boshqa jamoat joylarida aholini ro'yxatga olish tadbiri haqida radio va audio xabarlarni doimiy berib borilishini;

- ommaviy axborot vositalari orqali aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlari, uning ahamiyati va yangiliklari haqida doimiy intervyular va reportajlar;

- ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik uchun matbuot anjumani va brifinglar va boshqa targ'ibotga doir ishlarni tashkil etish ishlari bajariladi.

5. Ro'yxatga olish tadbirining **o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini ta'minlash** hamda buning uchun amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha **kunlik nazorat tizimini o'rnatish.**

Bunda:

- ro'yxatga oluvchilar ("Mahalla yettiligi" a'zolari)ni **soz planshet qurilmalari** bilan doimiy ta'minlash ishlarini tashkil etish;

- har bir ro'yxatga oluvchilar, mahallalar, tuman (shahar)lar va viloyatlar kesimida kunlik reja grafiklar ishlab chiqish va bajarilishini nazorat qilish;

- barcha davlat tashkilotlari va yirik korxonalar xodimlarini (oila a'zolarini qo'shgan holda) internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishini tashkil etish;

- fermer va dehqon xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligiga oid korxonalarning ro'yxatdan o'tishini tashkil etish;

- ro'yxatga olish jarayonida vujudga keladigan muammolar (misol uchun: ro'yxatga oluvchi betob bo'lib qolishi, qastdan ishga chiqmaslik, mehnat shartnomasi bekor bo'lishi va h.k.)ni tezkorlik bilan xal qilish choralarini tashkil etish;

- asosiy faoliyat turi qishloq xo'jaligi bo'lmagan lekin qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan tashkilotlarni markazlashgan holda (**e-Stat**) Internet tarmog'i orqali onlayn ro'yxatdan o'tishini tashkil qilish;

- Milliy gvardiya va ichki ishlar xodimlari bilan birgalikda jinoyatchilik ko'p uchraydigan mahallalar ro'yxatini shakllantirish va ushbu xonadonlarga ichki ishlar yoki milliy gvardiya xodimlari bilan birga ro'yxatga olish ishlarini tashkil etish;

- ro'yxatga oluvchi tomonidan xonadonlarga shaxsan tashrif buyurmagan holatlar aniqlansa, bunday xodimlar bilan fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnomasini bekor qilish choralarini ko'rish ishlari bajariladi.